

**DORI VOSITALARI VA TIBBIY BUYUMLARNI
YETKAZIB BERISH TO'G'RSIDA**

Sh A R T N O M A № 25/1

Termiz shaxar.

«24» yanvar 2022 yil

«Surxon Dori-Darmon» ma'suliyati cheklangan jamiyati (keyinchalik matnda «Ta'minotchi» deb yuritiladi) nomidan nizom asosida ish yurituvchi, korxona direktori **N.Q.Sharipov** bir tomondan

Boysun tuman tibbiyot birlashmasi
J.M. Botirov

(keyingi matnlarda «Istemolchi» deb ataladi) ikkinchi tomondan

O'zlarining nizomlari va O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy- xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonun talablariga asosan ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar:

1. Shartnoma mohiyati:

1.1. «Ta'minotchi», «Istemolchi»ning talabnomalari va yillik buyurtmalari asosida, Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanib «Asosiy dori vositalari» ro'yxatiga kiritilgan dori-darmonlar (jumladan giyoxvandlik, psixotrop, prekursorlar, etil spirti va boshqalar) va tibbiyot vositalari, shuningdek imtiyozga ega shaxslarga, imtiyozli retseptlar asosida dori-darmonlar va tibbiyot vositalari bilan ta'minlashni, «To'lovchi» esa, «Istemolchi» tomonidan olingan dori-darmonlar va tibbiyot vositalari (keyingi matnda tovar moddiy boyliklar deb yuritiladi) qiymatini belgilangan reja asosida «Ta'minotchi»ning bankdagi tegishli xisob raqamiga pul o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

2. Tovar moddiy boyliklarning narxi va qiymati

2.1 Tovar moddiy boyliklar qiymati Respublikamiz milliy valyutasi, so'mda belgilanadi.

2.2 Shartnomaning umumiy qiymati (QQS id) 437346,6 so'mni tashkil etadi.

yetti yuz otuz yettining uch yuz qirg'olti so'm 60t.

2.3 «Istemolchi»ning yil davomida xarajatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar doirasida tomonlar o'zaro kelishilgan xolda shartnoma summasiga o'zgartirishlar kiritishga xaqlidir. Bu o'zgartirishlar shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan, qo'shimcha kelishuv orqali amalga oshiriladi.

2.4 Tovar moddiy boyliklarning narxi va umumiy qiymati «Spesifikatsiya» shartnomaga ilova qilinadi.

2.5 «Spesifikatsiya»da ko'rsatilgan tovar moddiy boyliklar, «To'lovchi» tomonidan 30% to'lov amalga oshirilgandan keyin 3-kun ichida «Istemolchi» tomonidan talab kilib olinmasa, «Ta'minotchi» «Spesifikatsiya»da ko'rsatilgan tovar moddiy boyliklarni sotib yuborishga xaqli va «Istemolchi»ning roziligi bilan boshqa turdagi tovar moddiy boyliklar bilan almashtirish xuquqiga ega bo'ladi.

3. Xisob-kitob qilish shartlari.

3.1 «Istemolchi» tovar moddiy boyliklarning to'liq qiymati (ya'ni shartnoma umumiy summasining) 30% ni shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 bank ish kunida «Ta'minotchi»ning xisob raqamiga (so'mda) oldindan to'lovni amalga oshiradi, qolgan 70% «Ta'minotchi» tomonidan yozilgan xisob varaqa (schet/faktura) asosida tovar moddiy boyliklar olingan kundan boshlab 30 kun ichida «Istemolchi» tomonidan amalga oshiriladi.

3.2 «Istemolchi» tomonidan mazkur shartnomaning 3.1 bandi talablari bajarilmagan taqdirda, «Ta'minotchi» shartnomada ko'rsatilgan tovar moddiy boyliklarni bermaslikka xaqli bo'ladi.

3.3 «Ta'minotchi» tomonidan tovar moddiy boyliklarni o'z vaqtida yetkazib bermasa, buning natijasida ikkinchi tomon zarar ko'rsa bir tomonlama shartnomani bekor qilishga asos bo'ladi.

4. Tovar moddiy boyliklarni yetkazib berish shartlari.

4.1 «Istemolchi» tovar moddiy boyliklarni «Ta'minotchi»ning omborxonasidan o'z transportida olib ketadi.

4.2 Giyoxvand, psixotrop va zaxarli dori vositalarni «Istemolchi» tomonidan olinishi, tegishli ichki ishlar idoralarining maxsus ruxsatnomalari, xamda Respublika SSVning maxsus litsenziyalari asosida istemolchining maxsus avtotransportida olib ketilishiga ruxsat beriladi.

5. Tomonlarning majburiyatlari.

5.1 Ta'minotchi majburiyatlari

- oldindan shartnomaning 3.1.bandi amalga oshirilgandan keyin, «Istemolchi» talabnomasida ko'rsatilgan dori vositalarni olishga ruxsat beradi.

- «Istemolchi»ga O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan, sifat, markirovka va o'ramlari farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan, xamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan, yaroqlilik muddati 50%-dan kam bo'lmagan dori vositalari va tibbiy buyumlarni sotadi.

«Istemolchi»ga tovar moddiy boyliklarning, xisob varaqasini (schet/faktura) va ishlatishga yaroqliligi to'g'risida sertifikatidan nusxa taqdim etadi.

«Istemolchi» majburiyatlari:

Tovar moddiy boyliklarni qabul qilib olish jarayonida «Ta'minotchi»ning omborxonasida to'lik ko'zdan kechiradi xamda uning sifatiga, butligiga, yaroqligiga va mikdoriy to'g'riligiga e'tibor beradi.

Tovar moddiy boylik «Ta'minotchi» omborxonasidan «Istemolchi» tomonidan qabul qilingandan keyin javobgarlik to'liq «Istemolchi» tomoniga o'tadi.

6. Tomonlarning javobgarligi:

6.1. Tomonlar ushbu shartnomani qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun mulkiy javobgardirlar.

6.2.Shartnomaning 3.1.bandiga asosan «Iste'molchi» va «To'lovchi» tovar moddiy boyliklarning to'lanmagan qiymatini bir oydan kechiktirib to'lashga yo'l qo'ysa, kechiktirib to'lanayotgan qiymatdan xar bir kun uchun 0,5% «Ta'minotchi»ning foydasiga penya to'lanadi, lekin penya qiymati to'lov qiymatining 50% dan ortiq bo'lmasligi kerak.

6.3. Ta'minotchi xisob raqamiga, «Buyurtmachi» ning mablag'i tushgandan so'ng, tovar moddiy boyliklari «Buyurtmachi»ning talabnomasi asosida bir oy yoki kelishilgan muddatda ta'minlanmasa, «Ta'minotchi» xisob raqamiga o'tkazilgan qiymatning xar bir kechiktirilgan kuni uchun «Buyurtmachi» foydasiga 0,4% penya to'laydi, lekin to'lanadigan penya miqdori, yetkazib berilmagan tovar moddiy boyliklar qiymatining 50% dan ortiq bo'lmasligi kerak.

6.4.Shartnomaning 5.1.bandiga asosan «Ta'minotchi» tomonidan sotilgan tovar moddiy boyliklar sifatisizligi tegishli xujjatlar bilan tasdiqlansa, u xolda «Ta'minotchi» sifatisiz tovarlarni, sifatli tovarlar bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

6.5.«Ta'minotchi»ning xisob varaqa (schet/faktura)sida tovarlar solingan barcha idishlar (tara)ni qaytarilishi qayd etilgan bo'lsa, idishlar 15 kun ichida qaytarilishi shart. Aks xolda idishlar qiymatidan quyidagicha jarima olinadi.

15 kundan kechiktirilsa 50%

30 va undan ortiq kun uchun 100%

6.6.«Istemolchi» tomonidan tovar moddiy boyliklar ishlatilishi jarayonida sodir etilgan qonun buzilish xollari uchun «Ta'minotchi» javob bermaydi.

6.7.Shartnomaning amal qilish muddati tugashi, taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

6.8. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki bir taraflama o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

7.Nizolarni xal etish.

7.1.MAZkur shartnoma bo'yicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon keltirilgan moddiy zararni qoplaydi.

7.1.Tomonlar o'rtasida shartnomani tuzishda, bajarilishida, o'zgartirish va bekor qilishda yetkazilgan zararni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogohlantirish va da'vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda bo'yicha yuzaga kelgan nizolar Surxondaryo viloyat iqtisodiy sud orqali hal qilinadi.

8. Qo'shimchalar :

8.1.Tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgarish va qo'shimchalar faqat yozma tartibda rasmiylashtiriladi va tomonlar imzolab, muhrlangandan so'ng, asosiy shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

8.2. Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga to'lov shartlari bajarilmaganligi yoki tovar yetkazib berish tartiblari buzilganligi asos bo'ladi.

9. Fors major :

9.1.Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikki tomon o'z majburiyatlarini g'ayri tabiiy xolatlar, suv toshqini, yongin, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarmasa, xech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.

10. Shartnomaning amal kilish muddati:

10.1.Mazkur shartnoma tomonlar tomonidan imzolaniib, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va «31» dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

10.2.Ushbu shartnoma 3 nusxada tuzilgan bo'lib, uchchala tomon uchun xam teng kuchga ega va bank hisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi.

11.Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

Ta'minotchi

«Surxon Dori-Darmon» MChJ

Termiz shahar Islom Karimov ko'cha 119 uy

H/r 20210000100311848001 MFO 00324 Asosiy

H/r 20210000800311848490 MFO 00324 Ikkilamchi

Uzb.Resp. Tashqi Iqtisodiy faoliyat

Milliy bankining Termiz bo'limi

(NB VED Ruz)

INN 201317634 OKED 46460

Tel. 2224426, 2231029, 2233401

Faks: 2224426 email: surxon-doridarmon@mail.ru

Direktor:

N.Q.Sharipov

«Istemolchi»

Boysun tumani iqtisodiy birlashmasi
Boysun shahri At-Atirmidun ko'chasi 37-uy
X/r. 10002280222047013101054001
Markaziy bank XKKM
Toshkent shahri MFO: 00014
INN: 201389618 OKONX: 817 511
Tasdiqlash T.M. Botirov

Ro'yxatdan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligi qasna
Chiligi birlashmasi
X/r. 2340200030010001010
Markaziy bank XKKM
Toshkent shahri MFO: 00014
INN: 201122919

Xuquqiy ekspertiza xulosasi:

Shartnoma O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi Su'bektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risidagi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksining talablariga zid emas.

Xuquqshunos maslahatchi:

Djuraeva T.Ch.

Спецификация к договору № от года

№ 25/1 24.01.2022

№ пп	Наименование	Ед. изм.	Серия	Кол-во	Цена	Сумма
1	Спирт пищевой ЛЮКС 97,02 (этанол)	л	1117	20.0000	36867.33	737346.6

Всего товаров на сумму: 737346,6 сум.

Поставщик ООО "СУРХОН ДОРИ-ДАРМОН"



Покупатель:



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA HUQUQIY
XULOSA №VB0240828063**

1.Loyihaning turi : №25/1-sonli Shartnoma.

2.Loyihaning nomi va mazmuni: Boysun tumani Tibbiyot birlashmasi va “Surxon Dori-Darmon” MChJ o'rtasida dori vositalari va tibbiy buyumlarni yetkazib berish to'g'risida.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Boysun tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yilning 24– yanvar kuni taqdim etilgan. Shartnoma qiymati: 737 346 so'm 60 tiyin.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra XULOSA: Boysun tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan taqdim etilgan loyixa amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Markaz boshlig'i v.v.b:



D.B.Bo'riev

2022 yil «24» yanvar